Shuningdek, Orol dengizi Munis va Ogahiy tarixiy asarlarida *Bahirayi Xorazm* nomi bilan atalgan: "...*Bahirayi Xorazmg'akim, Ochchig' tengizg'a* mashhurdir, quyar… Va ani *Bahirayi Xorazm* atarlar. "Ravzat as-safo" xotimasida aning masohatini yuz farsang bitibdurlar".[1] Matn mazmunidan Orol tarixda, xususan, XIX asrda *Achchiq dengiz* deb ham atalganiga guvoh bo'lamiz.

3. *Gelonimlar* (yunoncha ἕλος – botqoq, ονομά – nom) – botqoqliklar nomini anglatuvchi toponim turi. Masalan, *Denge Marsh* botqoqi.

Afzal ul-ashob, zubdat ul-komilin, umdat ul-vosilin Uvays al-Qaraniy raziyallohu anhu va hazrati haqiqatpanoh, hidoyatdastgoh Shayx Jalil ota qaddasa sirrahuning qadamgohlari dag'i tog' bila daryo o'rtasida voqe'dur va kun chiqari Uyg'ur eri va Andaroy Cho'nko'lig'a yovuqdur. Va kun botar haddi Qisnoqdur.[2] *Bodoy*ning etnonim sifatidagi ma'nosini quyidagi parchada ko'ramiz: "Kichikining oti Elchikan. Barcha elchikan va uymovut va qunqimor va arlot va kilkit va *bodoy* va qishliq qaboili aning naslidin munshaabdurlar".[3] Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarida *Suduk to'g'oyi* nomi ham tilga olinadi.

Xulosa. Har bir til, unda so'zlashuvchilar sonidan qat'iy nazar, borliq – atrofdagi olam manzaralarini aks ettiradi. Tabiat, umuman, atrof-muhitning mavjudligi insonning tafakkurida, shuurida borliqdagi yaqqol ajralib turadigan voqea va hodisalarni, belgilarni, harakat va holatlarni nomlay olgani orqali in'ikos topadi. Bugungi kunda odamlarning jug'rofiy fikrlashi va fikrlash jug'rofiyasi kengayib bormoqda, natijada ma'lum bir mintaqadagi tarixiy hudud toponimiyasi haqidagi bilimlari bir necha barobar ortib bormoqda. Ingliz toponimikasini o'rganish soha tadqiqotchilari ham turli jurnallar, lug'atlar, ensiklopediyalar, davriy nashrlar, ya'ni, ingliz tili toponimikasini o'rganish bo'yicha asosiy manbalarni o'rganish ishlari olib borilmoqda. So'nggi yillarda ko'plab qiziqarli toponimik tadqiqotlar paydo bo'lgan Angliya, AQSH va Avstraliyada aniq ilmiy natijalarni bergan eng qat'iy yo'nalish bu nomlarni etimologik o'rganishdir. Geografik nomlar umumiy tarix, xususan, tillar tarixi tadqiqi uchun juda qimmatli materialdir. Uzoq shakllanish va rivojlanish tarixiga ega bo'lgan boshqa qadimgi xalqlar singari, ingliz xalqi ham ko'p ildizlarga ega: anglo-sakslar, vikinglar, normanlar, rimliklar va keltlar. Shunga ko'ra, toponimlar ham shu etnik guruhlarning har biri bilan bog'liq o'z kelib chiqishi tarixiy ildiziga ega.

Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi;
e-mail: azizbek.mengboyev@mail.ru; Orcid: 0009-0006-9799-4313)

O'ZBEK XALQ O'YINLARI NOMLARINING TEMATIK TASNIFI VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *O'zbek xalq o'yinlari milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, ular xalqning tarixi, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Ushbu o'yinlar, ko'pincha, ma'lum bir vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti va madaniy xususiyatlari bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada xalq o'yinlari nomlarining tematik tasnifi va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek xalq o'yinlari, lingvomadaniyat, xalq og'zaki ijodi, madaniy qadriyatlar, o'yin nomlari.*

Менгбоев Азизбек Алижон угли (преподаватель Термезского университета экономики и сервиса;
e-mail: azizbek.mengboyev@mail.ru; Orcid: 0009-0006-9799-4313),

ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЙ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИГР

Аннотация. *Узбекские народные игры являются неотъемлемой частью национальной культуры, отражающей историю, ценности и мировоззрение народа. Эти игры часто направлены на выполнение конкретных задач и связаны с общественной жизнью и культурными особенностями узбекского народа. В статье анализируется тематическая классификация и лингвокультурные особенности названий народных игр.*

Ключевые слова: *узбекские народные игры, языковая культура, народное устное творчество, культурные ценности, игровые названия.*

---

[1]Shir Muhmmad Mirab Munis and Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal. History of Khorezm. Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. Leiden–NewYork–Kobenhavn–Koln, 1988, p. 739.

[2]Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 3-жилд. Зубдат ут-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи Нурбой Жабборов. Тошкент, "Sharq", 2019, 133–134-бетлар.

[3]Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 2-жилд. 1-китоб. Шермуҳаммад Авазбий ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахт-саодат жаннати). Тошкент, "Sharq", 2019, 120-бет.

Mengboyev Azizbek Alijon ugli (Teacher of Termez University of Economics and Service; e-mail: azizbek.mengboyev@mail.ru: Orcid: 0009-0006-9799-4313)

THEMATIC CLASSIFICATION AND LINGUISTOCULTURAL FEATURES OF UZBEK FOLK GAME NAMES

Annotation. *Uzbek folk games are an integral part of national culture, reflecting the history, values, and worldview of the people. These games are often aimed at fulfilling specific tasks and are associated with the social life and cultural characteristics of the Uzbek people. This article analyzes the thematic classification and linguistic and cultural characteristics of the names of folk games.*

Keywords: *Uzbek folk games, linguistic culture, folk oral art, cultural values, game names.*

Kirish (Introduction). Xalq milliy o'yinlari milliy qadriyatlar tarkibidagi xalqning eng sevimli ommaviy ma'naviy tadbirlaridan biridir. "Navro'z", hayit, to'ylar va turli xil an'anaviy marosimlar, udumlar qadimdan kurashsiz, ko'pkarisiz (uloq), poygasiz va boshqa ko'p milliy o'yinlarisiz o'tmagan. Bunday tadbirlar xalq og'zaki ijodining barcha turlarida, dostonlarda ifoda etilgan. Ular ulug' allomalar Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va undan keyingi o'tgan adiblar, shoirlarning asarlarida qiziqarli hamda to'la bayon etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Yaqin o'tmishda, ayniqsa, mustaqillik yillari davrida xalq milliy o'yinlarini o'rganish va ularni qayta tiklash bilan o'quvchi yoshlarning ma'naviy kamolotlarini tarbiyalashda ulardan maqsadli foydalanish amalga oshirildi. Bu yilda madaniyat va san'at arboblari, taniqli olimlar M.Murodov, U.Qoraboyev, T.S.Usmonxo'jayev, A.Q.Atoyev, J.Toshpo'latov, R.Q .Qudratov, F.N.Nasriddinov kabilarning xizmatlari g'oyat katta bo'ldi. Xalq milliy o'yinlari bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, ularning tarkibida raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va juda ko'p janrlardagi san'at ancha ustun turadi [7].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbek xalq o'yinlari nomlarining tematik tasnifi va lingvomadaniy xususiyatlariga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek xalq o'yinlari nomlarini mavzular bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin.

Harakatli o'yinlar. Bu o'yinlar jismoniy faollikni talab qiladi, asosan, ochiq havoda o'tkaziladi. Masalan: *Oq terakmi, ko'k terak* – jismoniy kuch va chaqqonlikni talab qiluvchi o'yin. *Chillak* – bolalar orasida mashhur bo'lgan, maxsus tayoqcha yordamida o'ynaladigan o'yin [1;81-b.].

Harakatli o'yinlar nomlari semantik jihatdan, ko'pincha, ularning mazmun-mohiyatini aks ettiradi. Bu xususiyatlar quyidagicha tasniflanadi. Ko'plab o'yin nomlari bevosita ularning harakatini ifodalaydi. Masalan:

"Olma terish" – olmani terish jarayonini taqlid qilish orqali jismoniy faollikni ifodalaydi.

"Qop bilan sakrash" – qop ichida sakrash orqali qiziqarli musobaqa o'tkaziladi.

"Arqon tortish" – jamoaviy kuchni talab qiluvchi harakat o'yini.

Harakatli o'yinlar xalqning til va madaniyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Ushbu o'yinlar orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy falsafasi aks etadi. Harakatli o'yinlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va an'analarini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Masalan, "Kurash" o'yini milliy jasorat va kuch sinovining ramzi sifatida qadrlanadi. "Arqon tortish" o'yini jamoaviy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [2;39-b.].

Harakatli o'yinlar o'zbek xalqining boy madaniy merosining bir qismi bo'lib, ular til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni chuqur o'rganishga imkon beradi. Ushbu o'yinlar semantik jihatdan mazmunli, lingvomadaniy jihatdan esa xalqning qadriyatlari va an'analarini aks ettiruvchi vositalardir. Bu o'yinlarni o'rganish orqali o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini yanada chuqurroq anglash mumkin.

Aqliy o'yinlar. Bu turdagi o'yinlar aqlni charxlash va fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, *Topishmoq aytish* – bu o'yinda bolalar bir-biriga topishmoqlar berib, javob topishga harakat qiladi. *Qirq tosh* – hisoblash va strategik fikrlash talab qilinadigan o'yin [3;102-b.].

Aqliy o'yinlar insonning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek xalq og'zaki ijodida aqliy o'yinlar nafaqat ko'ngilochar, balki ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu turdagi o'yinlar inson mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan. Masalan:

"Topishmoq" – semantik jihatdan biror narsa yoki hodisaning tavsifini yashirin shaklda berib, uni topishni talab qiladi.

"Kim topqir?" – topqirlik va tezkor tafakkurni talab qiluvchi o'yin.

“Shaxmat” – harakatlarni oldindan rejalashtirishga asoslangan o‘yin.

“Qirq tosh” – sonlarni hisoblash va qo‘shimcha qoidalar orqali matematik ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan [4;19-b.].

Aqliy o‘yinlar o‘zbek xalqining madaniy va intellektual merosining muhim qismi bo‘lib, ular semantik va lingvomadaniy jihatdan boy mazmunga ega. Ushbu o‘yinlar orqali xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari va hayot falsafasi ifodalanadi. Aqliy o‘yinlarni tahlil qilish nafaqat o‘zbek tilining boyligini o‘rganish, balki xalq madaniyatini chuqur anglash imkonini ham beradi.

Marosim va bayram o‘yinlari. Bu o‘yinlar an’anaviy marosimlar va bayramlar bilan bog‘liq. Masalan: *Qo‘g‘irchoq o‘yini* – xalqning madaniy an’analari va urf-odatlarini aks ettiruvchi teatrlashtirilgan o‘yin. *Sumalak sayli o‘yinlari* – bahor bayrami davrida o‘ynaladigan o‘yinlar [5;72-b.].

Marosimlar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida muhim o‘rin tutgan. Ular nafaqat diniy va ijtimoiy funktsiyalarga ega, balki madaniyatning ajralmas qismi sifatida xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini aks ettiradi. Ushbu marosimlarda turli xil o‘yinlar ham muhim rol o‘ynagan. Xalq o‘yinlari inson hayotidagi muhim bosqichlarni, masalan, tug‘ilish, nikoh va o‘lim kabi hodisalarni aks ettiradi. Ushbu maqolada marosim o‘yinlarining nomlari tematik jihatdan tasniflanadi va ularning xalq hayotidagi o‘rni ko‘rsatiladi.

Nikoh va to‘y marosimlariga oid o‘yinlar. To‘y marosimlarida o‘tkaziladigan o‘yinlar, ko‘pincha, yoshlarning birlashuvi va yangi hayot boshlashini ramziy ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan:

“To‘y patta”. “Qiz talash”. “Qo‘shiqbozlik”.

Ushbu o‘yinlar, odatda, yoshlarning muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va marosimga quvnoqlik bag‘ishlaydi.

Marosim o‘yinlari xalq madaniyatining o‘ziga xos qismini tashkil etadi. Ular orqali xalq o‘zining tarixiy, ijtimoiy va madaniy merosini saqlab keladi. Ushbu o‘yinlarning tematik tasnifi ularning turfa xil ko‘rinishlarini yanada chuqurroq tushunishga va xalq madaniy merosini o‘rganishga yordam beradi [6;19-b.].

Jamoaviy o‘yinlar. Jamoaviy o‘yinlar insonlarning ijtimoiylashuvi, jamoada ishlash qobiliyati va birgalikda maqsadlarga erishish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ular xalq og‘zaki ijodining bir turi bo‘lib, xalqning ma’naviy merosi, madaniy qadriyatlari va urf-odatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Bu turdagi o‘yinlar jamoaviy birdamlikni kuchaytiradi. Masalan, *Arqon tortish* – jamoaviy kuch va birdamlikni talab qiladi. *Besh tosh* – kichik toshlardan foydalanib o‘ynaladigan o‘yin.

Metaforik nomlar: «Oq terakmi, ko‘k terak» kabi nomlar o‘yin mazmuni bilan bog‘liq ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Ba’zi o‘yinlar nomlari mahalliy shevalar ta’sirida shakllangan. Masalan, «Chillak» so‘zi ayrim hududlarda boshqacha atalishi mumkin.

“Ko‘zi bog‘liq holda topish” – ishtirokchilarning ko‘rmay turib maqsadga erishish uchun bir-biriga yordam berishini talab qiladi.

“Doira ichida o‘yin” – jamoaning har bir a’zosi bir xil maqsad sari harakat qiladi.

Jamoaviy o‘yinlar yoshlarga birgalikda ishlash, jamoada o‘z o‘rnini topish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Ular orqali ham jismoniy, ham ma’naviy tarbiya amalga oshiriladi. Masalan: “Kim epchil?” o‘yini bolalarda tezkorlik va jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi. “Doira ichida o‘yin” esa jamoaviy birdamlik va ijtimoiy muloqot qoidalarini o‘rgatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa o‘rnida zikr etish lozimki, o‘zbek xalq o‘yinlarining nomlari milliy madaniyat va qadriyatlarning yorqin ifodasi hisoblanadi. Bu nomlar orqali xalqning tarixi, ma’naviyati va ijodiy qobiliyatlari aks etadi. Lingvistik va madaniy xususiyatlarni tahlil qilish xalq o‘yinlarining mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Bekmurodov X. Madaniy meros va xalq o‘yinlari. Samarqand, “Zarafshon”, 2010, 145-bet.

(2). Jabborov E. O‘zbek xalq o‘yinlari leksikasi (Janubiy O‘zbekiston materiallari misolida). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi, Toshkent, 1998, 148-bet.

(3). Maxmudov B.A. Milliy harakatli o‘yinlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Nukus, 2018, 110-bet.

(4). Nazarov, X. Milliy urf-odat va an’analar. Toshkent, O‘zFA, 2020, 145-bet.

(5). Qo‘chqorov, O. Xalq o‘yinlari semantikasi. Toshkent, “Fan”, 2005, 185-bet.

(6). Qodirov, S. Xalq og‘zaki ijodi: Topishmoq va maqollar. Toshkent, O‘zFA, 2018, 158-bet.

(7). Temirova D.X. Rus va o‘zbek bolalar o‘yini folklori tipologiyasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Buxoro, 2022, 169-bet.